O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
QURILISH VA UY-JOY KOMMUNAL
XO'JALIGI VAZIRLIGI

"SHAHARSOZLIK
HUJJATLARINI EKSPERTIZA
QILISH RESPUBLIKA
MARKAZI" DMNING ANDIJON
VILOYATI BOSHQARMASI

Andijon viloyati 170100, Andijon Shahri, A.Navoiy shox ko'chasi 30-uy., Tel/Faks: 71-203-11-49, E-mail: ekspert-2312@mail.ru., new-ekspertiza.mc.uz

Holati: Ijobiy
Boshqarma boshlig`i: Ashurov Behzodbek Orifjon O‘g‘li
Sana: 11-10-2025 yil

YIG'MA EKSPERT XULOSASI

261306 - SONLI

Obyekt nomi: “Mavjud binolarni buzib o‘rniga 7 qavatli 8-qavati mansarda uslubidagi turar-joy" bino inshootlari qurilishi	
Buyurtmachi:	RAHMATILLO SAVDO SANOAT SERVIS XK
Bosh loyihachi:	"JAKHON ARCHITECTS" MAS'ULIYATI CHEKLANGAN JAMIYAT
Moliyalashtirish manbai:	Buyurtmachining o'z mablag'lari hisobidan
Bosh pudratchi:	Buyurtmachining maqbul tanlovi asosida
Qurilish turi:	Yangi qurilish
Murojaat raqami:	092391

1. Loyihalash uchun asos.

1.1. Andijon shaxar Qurilish va uy-joy kommunal xo`jaligi bo`limining 06.08.2025 yildagi №208158147-sonli ruxsatnomasi.

1.2. Andijon viloyati Qurilish va uy-joy kommunal xo`jaligi Bosh boshqarmasining 19.08.2025 yildagi №1703-1703401-235669-sonli Arxitektura-rejalashtirish topshirig'i.

1.3. Buyurtmachi tomonidan 2025 yilda tasdiqlangan loyihalash topshirig'i.

1.4. Buyurtmachi hamda bosh loyiha tashkiloti o`rtasida 06.08.2025-yilda tuzilgan loyiha-tadqiqot ishlari uchun №2-2025-son shartnoma.

1.5. Andijon viloyati Qurilish va uy-joy kommunal xo`jaligi Bosh boshqarmasi Arxitektura va shaxarsozlik kengashi ishchi organining 24.09.2025 yildagi №217238616-sonli xulosasi.

2. Ekspertiza uchun taqdim etilgan materiallar.

2.1. Loyihaning tarkibiy qismlarining ro'yxatiga muvofiq ishchi loyiha bosqichida to'liq loyiha xujjatlari.

2.2. Loyiha tarkibidagi umumiy tushuntirish xati.

2.3. Muxandislik geologik qidiruv ishlari «QISHLOQQURILISHLOYIHA» DM tomonidan 2025 yilda bajarilgan xulosa.

3. Loyiha yechimlarining qisqacha mazmuni.

3.1. Qurilish maydoni tafsilotlari:

- Iqlimi – keskin kontinental;
- Havoning xisobiy darajasi - 15 C;
- Shamolning hukmron yo'nalishi - g'arbiy;
- Qurilish-iqlimiy zonasi-II;
- Me'yoriy qor yuki - 0.50 kg/m2;
- Me'yoriy shamol yuk - 0.38 kg/m2;
- Yer osti suvlari yer yuzasidan - 3,8-4,0 metrdan ortiq chuqurlikda yotishi mumkin;
- Cho'kish bo'yicha tuproq sharoitining turi – I;
- Hududning zilzilabardoshlik ko'rsatkichi - 8 ball;
- Qurilish iqlimiy mintaqasi – II;
- Seysmik zonasi - 8 balldan yuqori.

3.2. Bosh re'ja:

Andijon shaxar xududida ilova etilgan bosh reja asosida "Mavjud binolarni buzib o'rniga 7 qavatli 8-qavati mansarda uslubidagi turar-joy" bino inshootlari qurilishi Andijon shaxar, Andijon MFY, Shimoliy Sanoat ko'chasi, 14-manzil hududida joylashgan. Qurilish maydoni uchun Andijon shaxar Qurilish va uy-joy kommunal xo`jaligi bo`limining 06.08.2025 yildagi №208158147 -sonli ruxsatnomasiga asosan – 9549.0 m2 yer uchastkasi ajratildi.
Loyihalashtirish uchun tanlangan yer maydoni quyidagicha chegaralangan: Shimol tomondan — Tadbirkorlik obyekti bilan chegaralangan; Sharq tomondan — Metan zapravka bilan chegaralangan; Janub tomondan — Avtomobil yo`li bilan chegaralangan; G'arb tomondan — Tadbirkorlik obyekti bilan chegaralangan. Loyiha ikki bosqichdan iborat bo'lib, birinchi bosqichda 1,2,3,7 va 8-bloklarni qurish ko'zda tutilgan. Bosh re'jaga ko'ra 5 dona 7 qavatli 8-qavati mansarda uslubidagi turar-joy binolari, soyabon, favvora, bolalar o'yin maydoni, chiqindi tashlash joyi, transformator, qorovulxona tashkillashtirish ko'zda tutilgan. Bosh reja relyef va mavjud kommunikatsiyalarni hisobga olgan xolda ishlab chiqilgan.

Hududning texnik-iqtisodiy ko'rsatkichlari:

Hududning umumiy maydoni	- 9549.00m2/100%;
Hududning umumiy qurilish maydoni	- 2931.64m2/30.70%;
Yo'llar, yo'laklar va maydonchalar	- 5125.20m2/53.67%;
Ko'kalamzor maydoni	- 1492.16m2/15.63%

3.3. Me'moriy yechimlari.

Yarim yerto'la qavatiga ega 7 qavatli 8-qavati mansarda uslubidagi turar-joy binolari ja'mi 1,2,3,4,5,6,7 va 8-bloklardan tashkil topgan:

1-blok – yarim yerto'lali, o`qdagi o'lchamlari 40.30x17.40 m. Yarim yerto'la va 1-7-qavatlarning poldan shiftgacha bo'lgan balandligi 3.00 m. Mansarda qavatining poldan shiftgacha bo'lgan balandligi 3.18 m ni tashkil etadi. Ushbu blokni bitta kirish joyi bo'lib, 3 va 2 xonali ja'mi 72 ta xonadondan iborat. 2 xonali kvartirada daxliz, yotoqxona, mehmonxona-oshxona, balkon va hojatxona xonalari mavjud. 3 xonali kvartirada daxliz, yotoqxona, mehmonxona, oshxona, balkon va hojatxona xonalari mavjud.

1-blok texnik-iqtisodiy ko'rsatkichlari:

Bino qurilish maydoni	- 577.21m2;
Bino umumiy maydoni	- 5194.08 m2;
Bino yashash maydoni	- 3585.6 m2;

Bino qurilish hajmi - 15088.27 m3;
Bino qavatlari soni - yarim yerto’lali, 8 qavatli(8-qavati mansarda uslubida)

2-blok – yarim yerto’lali, o`qdagi o'lchamlari 37.60x17.40m. Yarim yerto’la va 1-7-qavatlarning poldan shiftgacha bo’lgan balandligi 3.00 m. Mansarda qavatining poldan shiftgacha bo’lgan balandligi 3.18 m ni tashkil etadi. Ushbu blokni bitta kirish joyi bo'lib, 2 va 3 xonali 72ta xonadondan iborat. 2 xonali kvartirada daxliz, yotoqxona, mehmonxona-oshxona, balkon va hojatxona xonalari mavjud. 3 xonali kvartirada daxliz, yotoqxona, bolalar yotoqxonasi, mehmonxona oshxona, balkon va hojatxona xonalari mavjud.

2-blok texnik-iqtisodiy ko’rsatkichlari:

Bino qurilish maydoni - 684.40 m2;
Bino umumiy maydoni - 6159.6 m2;
Bino yashash maydoni - 4868.7 m2;
Bino qurilish hajmi - 17890.2 m3;
Bino qavatlari soni - yarim yerto’lali, 8 qavatli(8-qavati mansarda uslubida)

3-blok – yarim yerto’lali, o`qdagi o'lchamlari 40.30x17.40 m. Yarim yerto’la va 1-7-qavatlarning poldan shiftgacha bo’lgan balandligi 3.00 m. Mansarda qavatining poldan shiftgacha bo’lgan balandligi 3.18 m ni tashkil etadi. Ushbu blokni bitta kirish joyi bo'lib, 3 va 2 xonali ja’mi 72 ta xonadondan iborat. 2 xonali kvartirada daxliz, yotoqxona, mehmonxona-oshxona, balkon va hojatxona xonalari mavjud. 3 xonali kvartirada daxliz, yotoqxona, mehmonxona, oshxona, balkon va hojatxona xonalari mavjud.

3-blok texnik-iqtisodiy ko’rsatkichlari:

Bino qurilish maydoni - 577.21m2;
Bino umumiy maydoni - 5194.08 m2;
Bino yashash maydoni - 3585.6 m2;
Bino qurilish hajmi - 15088.27 m3;
Bino qavatlari soni - yarim yerto’lali, 8 qavatli(8-qavati mansarda uslubida)

4,5 va 6-bloklar keyingi bosqichlarda qurilishi ko’zda tutilgan.

7-blok – yarim yerto’lali, o`qdagi o'lchamlari 30.20x17.4 m. Yarim yerto’laning poldan shiftgacha balandligi 3.00 m. Yarim yerto’la va 1-7-qavatlarning poldan shiftgacha bo’lgan balandligi 3.00 m. Mansarda qavatining poldan shiftgacha bo’lgan balandligi 3.18 m ni tashkil etadi. Ushbu blokni bitta kirish joyi bo'lib, studiyali, 2 va 3 xonali 72 ta xonadondan iborat. 2 xonali kvartirada daxliz, yotoqxona, mehmonxona-oshxona, balkon va hojatxona xonalari mavjud. 3 xonali kvartirada daxliz, yotoqxona, mehmonxona, oshxona, balkon va hojatxona xonalari mavjud.

7-blok texnik-iqtisodiy ko’rsatkichlari:

Bino qurilish maydoni - 557.68m2;
Bino umumiy maydoni - 5019.12 m2;
Bino yashash maydoni - 3859.2 m2;
Bino qurilish hajmi - 14577.76 m3;
Bino qavatlari soni - yarim yerto’lali, 8 qavatli(8-qavati mansarda uslubida)

8-blok – yarim yerto’lali, o`qdagi o'lchamlari 24.0x17.4m. Yarim yerto’laning poldan shiftgacha balandligi 3.00 m. Yarim yerto’la va 1-7-qavatlarning poldan shiftgacha bo’lgan balandligi 3.00 m. Qavatlarning poldan shiftgacha balandligi 3.00m. Ushbu blokni bitta kirish joyi bo'lib, studiyali, 2 va 3 xonali 54 ta xonadondan iborat. 2 xonali kvartirada daxliz, yotoqxona, mehmonxona-oshxona, balkon va hojatxona xonalari mavjud. 3 xonali kvartirada daxliz, yotoqxona, mehmonxona, oshxona, balkon va hojatxona xonalari mavjud.

8-blok texnik-iqtisodiy ko’rsatkichlari:

Bino qurilish maydoni	- 441.4 m2;
Bino umumiy maydoni	- 3972.9 m2;
Bino yashash maydoni	- 2820.6 m2;
Bino qurilish hajmi	- 11539.2 m3;

Bino qavatlari soni - yarim yerto’lali, 8 qavatli(8-qavati mansarda uslubida)

1,2,3,7 va 8 - bloklar uchun umumiy bo’lgan ishlar.

Ichki pardozlash ishlari - tayyor xolda topshirish shartisiz, xonadonlarni pardevor bilan xonalarga bo’linadi, ichki pardozlash ishlari xonadon egalari tomonidan amalga oshirilishi ko’zda tutilgan.

Ichki eshiklarsiz amalga oshirilishi ko’zda tutilib, elektr yoritkichlarsiz, isitish va shamollatish tizimlari inventarlarisiz (radiator, moyka, elektr suv isitgich, umivalnik va unitazlarsiz) bajariladi.

Zinalar va xonadonlarga kirish qismi (podyezd) pardozlash ishlari to’liq bitkazilib, devor xamda shiftlar suvoqlash, shpaklevka va sifatli bo’yoqlar bilan bo’yash ishlari bajarilishi hamda liftlar o’rnatilishi ko’zda tutilgan.

Derazalar – PVX plastmassa materiallardan tayyorlangan bo’lib, 2 qavatli energiya tejamkor. Deraza tokchalari-ichki tomonga PVXdan, tashqi tomonga po’lat rux tunikadan qoplanadi. Eshiklar- yo’laklarga (podyezga) kirish tashqi eshiklari va xonadonlarga kirish eshiklari metaldan o’rnatiladi. Ichki eshiklar xisobga olinmagan.

Pollar – zinapoya maydonlari va qadamlari hamda xoll qismida mramor aglomerati qoplamasi bilan qoplanadi, xonadonlar pollarini pardozlash ishlari xonadon egalari tomonidan bajariladi.

Tashqi pardozlash ishlari - binoning fasadi tashqi tomonidan penoplast plitalari bilan qoplanib va tashqi ko’rinishini g’isht rasmi tushirilgan «travertin» dekorativ suvoq qilish, sokol «keramogranit» plitka bilan pardozlash ko’zda tutilgan.

Konstruksiyalar tasnifi:

Poydevor - Yaxlit quyma temir-beton plita;

Ustunlar - quyma temir-beton. Kesim yuzasi 600x600,500x500,400x400mm. Beton B22,5 sinfli;

Quyma to'sinlar- quyma temir-beton. Kesim yuzasi 500x400, 500x500 (h)mm. Beton B22,5 sinfli;

Devorlari - 300 mm qalinlikdagi - gazoblok, devorlarning balandligi bo'ylab 400 mm qadam bilan SG-1 to'rlari bilan , vertikal metall o'zak bilan mustahkamlangan; Pardevorlar - 100mm,120mm,150mm,250mm qalinlikdagi gazoblok va pishiq g'isht, devorlarning balandligi bo'ylab 400 mm, 450 mm qadam bilan SG-2, SG-3, SG-4, SG-5, SG-6 to'rlar bilan, vertikal metall o'zak bilan mustahkamlangan;

Metall o'zak - Kesim yuzasi L 50x5mm burchaklik;

Orayopmalar - yaxlit quyma temirbeton plita t=160;

Zinapoya - quyma temir-beton;

Tom konstruksiyalari -metall konstruksiyalar.

Ishchi loyihada O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 9 sentabrdagi PF-220-son Farmoni talablariga muvofiq amalga oshirilishi ko‘zda tutilgan ish turlari:

- Issiq suv ta’minoti loyihaviy har bir xonadondagi ikki konturli gaz qozonlaridan hamda bino va inshootlarda qayta tiklanuvchi energiya manbalaridan foydalanish talablari ko‘zda tutilgan, binoning tom qismida o‘rnatilgan quyosh batareyasi kollektoridan qo‘shimcha issiq suv taminlanishi ko‘zda tutilgan;

- Energiya samaradorlikni ta’minlash bo‘yicha chora-tadbirlarni nazarda tutilgan va ob’ekt energiya resurslarini zamonaviy “aqlli” o‘lchash moslamalari bilan jihozlanishi bo‘yicha talablar ko‘zda tutilgan;

- Binoda issiqlikni saqlash uchun binoning tashqi fasad qismiga penoplast penopolistirol plitalari qoplash ko`zda tutilgan;

- Tom issiqlik qatlami – ekstruziyalangan penopolistiroldan bajariladi;

Nogironligi bo‘lgan shaxslar hamda keksalar uchun qurilish ob’yektlari O`zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 18-iyuldagi PQ-266 sonli qarori talablari bo`yicha:

- nogironlar uchun to`xtash joyi avtoturargox tashkil qilish va maxsus belgilar o`rnatish;
- bino hududida ogohlantiruvchi va yo`naltiruvchi taktil qoplama qoplash;
- bino qavatlarida ogohlantiruvchi va yo`naltiruvchi taktil qoplama qoplash;
- bino birinchi qavatiga chiqish uchun ko’tarish moslamasi o’rnatish;
- bino yuqori qavatlariga ko’tarilish uchun lift ko’zda tutilgan.

4. Loyihalanayotgan obyektning muhandislik ta'minoti.

4.1. Ob`yektni muhandislik kommunikatsiyalari bilan ta'minlash Andijon viloyati Qurilish va uy-joy kommunal xo`jaligi Bosh boshqarmasining 19.08.2025 yildagi №1703-1703401-235669-sonli Arxitektura-rejalashtirish topshirig'iga muvofiq hal qilinadi;

- Elektr ta'minoti - “Hududiy elektr tarmoqlari” AJ Andijon hududiy filialining 18.09.2025-yildagi 03401104581 sonli texnik shartiga muvofiq;
- Suv ta'minoti - “Andijon suvta`minoti” MChJ Oltinko’l tuman filialining 12.08.2025 yildagi №207961112-sonli texnik shartiga muvofiq xal qilinadi.

Issiqlik tizimi va shamollatish tizimi:

Issiqlik ta’minoti xonalardagi 2 konturli qozonlardan amalga oshiriladi. Isitish sistemasi ikki quvurli gorizontal qabul qilingan. Isitish uskunalari sifatida alyumin radiatorlar qabul qilingan. Vanna, oshxona va sanuzellardan shamollatish tizimi tabiiy holatda qabul qilingan. Xonadonlar ichidagi uskunalar xonadon egalari tomonidan bajariladi.

Ichimlik suvi va oqova suvi tizimi:

- polipropilen sovuq suv va issiq suv quvurlarini devor konstruksiyasi ichida "shtrobada" o’rnatish, sanitar texnik jihozlarsiz, yong`inga qarshi suv ta'minoti tarmog`i ho`jalik suv tarmog`idan ulanishi, yong`inga qarshi suv ta'minoti quvurlari GOST-10704-91 talabiga asosan po`lat quvurlar o’rnatish ko`zda tutilgan, ichki oqova suv tarmog`ini PVX rusumli yuqori sifatli va gigienik quvurlardan foydalanib qurish, tashqi oqova suv tarmog`ini spool (asbestosement) quvurlardan foydalanib qurish, quvurlar tiqilib qolganda nazorat va tozalash uchun taftish tirqishlari ko`zda tutilgan.

Tashqi elektr taminoti:

“Hududiy elektr tarmoqlari” AJ Andijon hududiy filialining 18.09.2025-yildagi 03401104581 sonli texnik shartiga muvofiq amalga oshirish ko’zda tutilgan. Loyiha ulanish nuqtasi etib 35/6 kV kuchlanishli “Mebel” podstansiyasiga aloxida yacheyka o’rnatish orqali amalga oshirish

ko’zda tutilgan.

Ichki elektr taminoti:

- elektr yoritish simlarini yangi sim va kabellarni o`rnatish, elektr jihozlarisiz, qo`riqlash, yong`indan habar berish tizim va jihozlarini o`rnatish, loyihada energiyatejamkor LED yoritgichlardan foydalanish, yuqori kuchlanish asbob-uskunalardan foydalanish, loyihada TP o’rnatilishi ko’zda tutilgan. Qurilish yakunida tashqi LEP 6/10 kV li tarmoq loyihalansin va tarmoqqa ulansin.

Energiya tejamkorlik:

Binoning yo'laklarida xarakat datchikli sivetodiodli chiroqlar orqali bajarilgan. Hamda har bir bino tom qismiga quvvati 500w bo’lgan 30 dona 15 kwt li quyosh panellari o’rnatish ko’zda tutilgan. Tashqi yoritish aqlli yoritish chiroqlari orqali yoritilgan.

5. Loyihani kelishilganligi to'g'risida hujjatlar.

5.1. Andijon viloyati Qurilish va uy-joy kommunal xo`jaligi Bosh boshqarmasi Arxitektura va shaxarsozlik kengashi ishchi organining 24.09.2025 yildagi №217238616-sonli xulosasi.

5.2. Andijon viloyati ekologiya va atrof muxitni muhofaza qilish boshqarmasi tomonidan 16.09.2025-yildagi №01-02/03-6699 sonli xulosasi.

6. Ekspertiza natijalari.

Ekspertiza natijalariga ko‘ra qo‘shimcha qiymat solig‘i (QQS) bilan **69 643 881 377** so'm miqdorida taqdim etilgan loyiha qiymati

141 102 093 so'mga oshirilib, **69 784 983 470** so‘mni tashkil etadi. Xususan:

Qurilish-montaj ishlari: **59 595 680 837** so'm

Asbob-uskunalar: **2 712 340 119** so'm

QQS: **7 476 962 515** so'm

6.1. Loyixa-smeta hujjatlari ekspertizaga buyurtmachining e’tirozlarisiz taqdim qilindi.

6.2. Ishchi loyixaga asosan qurilish montaj ishlarining yakuniy xarajatlari buyurtmachi va pudradchi tomonidan qurilish tugagandan so'ng, xaqiqiy (ijro xujjatlari) nazorat natijalari asosida aniqlanadi.

6.3. Ekpertizaga oid ko‘rib chiqish jarayonida ishchi loyihaning bo'limlari yuzasidan berilgan e'tiroz va kamchilliklarni to'liq bartaraf etish lozim.

6.4. Ushbu ekspertiza xulosasida pudratchining boshqa harajatlari, obyektning hududda joylashgan o`rni va oraliq masofasi bo`yicha “Shaharsozlik hujjatlarini ekspertiza qilish Respublika markazi” DM Andijon viloyati hududiy boshqarmasi majburiyatni o‘z zimmasiga olmaydi. Vaholanki, Andijon viloyati Qurilish va uy-joy kommunal xo`jaligi Bosh boshqarmasi Arxitektura va shaxarsozlik kengashi ishchi organining 24.09.2025 yildagi №217238616-sonli xulosasida obyektning hududda joylashgan o`rni va oraliq masofasi bo`yicha mutasaddi tashkilotlar bilan kelishilgan.

6.5. Ekspert mutahassislar tomonidan ko`rsatilgan bandlar buyurtmachi va loyiha tashkiloti tomonidan to`liq bajarilmagan taqdirda ushbu ekspertiza xulosasi o`z kuchini yo`qotgan deb xisoblanadi.

6.6. Buyurtmachi loyixaviy xujjatlarini tasdiqlashdan oldin belgilangan tartibda barcha manfaatdor vakolatli organlar, shu jumladan, O'zbekiston Nogironlar jamiyati Andijon viloyat bo'limi bilan kelishish lozim.

6.7. O'zbekiston Respublikasi Qurilish vazirligining 2019-yil 19-avgustdagi 396-buyrug'i (O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi tomonidan 2019-yil 9-sentabrda ro'yxatdan o'tkazilgan, ro'yxat raqami 3180) bilan tasdiqlangan “Loyixa-tadqiqod ishlarining qiymatini aniqlash tartibi to'g'risidagi” Nizomning 4-bandiga asosan loyixa tashkiloti tomonidan qurilish

ustidan mualliflik nazoratini o'tkazishda, loyixalarni ishlanma boshlanishidan amalga tadbiq etilishining oxirigacha olib boriladigan texnikaviy kuzatuvini amalga oshirishda ishtirok etadi.

6.8. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 17-sentabrdagi 579-sonli qarori 1-ilova, III-bob, 29-bandiga asosan ekspert tashkilotiga taqdim etilgan shaharsozlik hujjatlarining sifati, dastlabki ma'lumotlarning xaqqoniyligi va qabul qilingan loyiha yechimlariga buyurtmachi va loyiha tashkiloti javobgardir.

6.9. Buyurtmachi loyiha xujjatlarini tasdiqlashdan oldin, ob’ekt loyixa-smeta xujjatlarini qisqa muddatlarda ko‘rib chiqib, yig‘ma ekspertiza xulosalari taqdim etilishi talab etilganligini inobatga olib, normativ talablarga mos kelmagan loyixa yechimlarini ShNQ talablariga moslashtirish yoki ShNQ ning o‘sha bandiga tegishli o‘zgarishlar kiritish sharti bilan tasdiqlash uchun tavsiya etiladi.

6.10. Nogironligi bo‘lgan shaxslar hamda keksalar uchun qurilish obyektlari O`zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 18-iyuldagi PQ-266 sonli qarori bilan bir vaqtda ShNQ 2.01.02-04, ShNQ 2.04.09-21, ShNQ 2.07.01-23, ShNQ 2.08.01-24, ShNQ 2.08.02-23, ShNQ 2.08.04-24, ShNQ 2.07.02-24 hamda ShNQ 2.08.07-22 talablarini hisobga olgan holda, loyihalashtirish topshirig‘iga asosan talablarga to`liq amal qilinsin.

6.11. Taqdim etilgan umumiy miqdori buyurtmachining boshqa harajatlarisiz va 12% QQS bilan 69 643 881 377 so'mni tashkil qilgan. Ekspertiza ko'rigidan so`ng 141 102 093 so'm o`zgargan ish hajmlari hisobidan ortdi.

7. Xulosalar.

7.1. Ishchi loyiha “Mavjud binolarni buzib o‘rniga 7 qavatli 8-qavati mansarda uslubidagi turar-joy” bino inshootlari qurilishi "bino va inshootlari qurilishi taqdim etilgan quyidagi texnik-iqtisodiyko'rsatkichlar bilan tasdiqlash uchun tavsiya qilinadi:

Qurilish maydoni	- 2837.90 m^2;
Umumiy maydon	- 25539.78 m^2;
Yashash maydoni	- 18719.70 m^2;
Qurilish hajmi	- 74183.70 m3;
Me'yoriy mehnat sarfi	- 477 914,42 odam-soat
Joriy narxdagi tavsiyaviy (boshlang'ich) miqdori 12% QQS bilan (Buyurtmachining boshqa harajatlarisiz)	- 69 784 983 470 so'm.

7.2. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2003-yil 11-iyundagi 261-sonli qarori va ShNQ 4.01.16-09 me'yorlariga muvofiq tanlov savdolarini o`tkazish uchun ob'ektning qiymati buyurtmachi tomondan belgilanadi. Tasdiqlash uchun tavsiya etilgan ta'mirlash va qurilish ishlari narxi boshlang`ich xisoblanib, asosiy qarorni buyurtmachi va bosh pudrat korhonasi tomonidan shartnomaviy munosabatlar orqali amalga oshiriladi.

7.3. ShNQ 1.03.06-13da “Davlat ekspertizasiga taqdim etiladigan shaxarsozlik xujjatlarining sifati uchun javobgarlik buyurtmachiga (dastlabki ma'lumotlarni loyixalashtirish jarayonida taqdim etilgan dastlabki ma'lumotlarning ishonchliligi bo`yicha) va ishlab chiquvchiga (qabul qilingan loyixa qarorlari bo'yicha) yuklatiladi”.

7.4. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 17-sentabr 2021-yildagi №579-sonli qarorining 5-bob, 36-bandida shaharsozlik xujjatlari bo’yicha ekspert tashkilotlar tomonidan berilgan ekspertiza xulosasining amal qilish muddati 2 yil etib belgilangan!

Bosh ekspert: Asqarov Otabek Fazlidinovich.

Ishtirokchi ekspertlar: Primqulov Raximjon Ibragimjonovich, Baxtaxunova Muxayyo Kozimjon Qizi, Madmarov Baxtiyor Baxodirovich, Abdurashidov Miryusup Kobulovich, Xakimov Olimjon Kamiljanovich, Asqarov Otabek Fazlidinovich